**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**
**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**“TASDIQLAYMAN”**
Chirchiq davlat pedagogika
universiteti rektori
G.I. Muxamedov
__________________________
2023 yil “ 29 ” 08

# IQTISODIY TA’LIMOTLAR TARIXI
# O‘QUV DASTURI

| | |
|---|---|
| Bilim sohasi: | 100000 – Ta’lim |
| Ta’lim sohasi: | 110000 – Ta’lim |
| Ta’lim yo‘nalishi: | 60411200-Menejment |

**Chirchiq – 2023**

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| **Fan/modul kodi**<br>**HISET2** | **O'quv yili**<br>**2023-2024** | **Semestr**<br>**1** | **ECTS - Kreditlar**<br>**5** | |
| **Fan/modul turi**<br>**Majburiy** | **Ta'lim tili**<br>**O'zbek/rus`** | | **Haftadagi dars soatlari**<br>**6** | |
| **1.** | **Fanning nomi** | **Auditoriya mashg'ulotlari (soat)** | **Mustaqil ta'lim (soat)** | **Jami yuklama (soat)** |
| | **Iqtisodiy ta'limotlar tarixi** | 90 | 60 | 150 |

2.

**I. Fanning mazmuni.**

**Fanni o'qitishdan maqsad** –talabalar tafakkurida ayrim shaxslar, ijtimoiy guruhlar yoki umumjamiyat manfaatlarini ifodalovchi iqtisodiy fikr, qarash, g'oya, nazariya va ta'limotlarning shakllanishi, rivojlanishi, "yemirilishi" va almashinuvining tarixiy jarayonini izchil yoritish asosida milliy istiqlol mafkurasining mohiyati va mazmuniga mos, tub islohotlar milliy modelining etuk amaliyotchisiga xos iqtisodiy dunyoqarashni shakllantirishdan iborat.

**Fanning vazifasi** – talabalarga iqtisodiy ta'limotlar tarixi bo'yicha nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, iqtisodiy hodisa va jarayonlarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish vazifalarini bajarishdan iboratdir.

**II. Nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**
**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1-mavzu. "Iqtisodiy ta'limotlar tarixi" faniga kirish. Fanning predmeti va o'rganish usullari. Qadimgi dunyo va antik davr iqtisodiy g'oyalari.**

Iqtisodiy fikr, g'oya, qarash, ta'limotlarning paydo bo'lishi va rivojlanishining tarixiy jarayoni.Ilmiy davrlash prinsiplari (tamoyillari), boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar (falsafa, iqtisodiyot nazariyasi, xalq xo'jaligi tarixi, ekonomiks) bilan chambarchas bog'liqligi.Iqtisodiy fan tarixida maktablar va yo'nalishlar tushunchasi .Qadimgi Sharq, qadimgi G'arb, qadimgi Misrdagi iqtisodiy g'oyalar, bilimlar va konsepsiyalar xamda qonunlar.

**2-mavzu. O'rta Osiyadagi temuriylar davrigacha bo'lgan iqtisodiy g'oyalar. Amir Temur va Temuriylar davridagi iqtisodiy g'oyalar.**

Ibn Xaldunning iqtisodiy asarlari, undagi iqtisodiy fikrlar. Iqtisodiy qonunchilik, zakot, chorva mollari qo'y-qozi, qoramollardan olinadigan zakot miqdori.Forobiy asarlarida ehtiyoj, mexnat, mexnat taqsimoti, inson omili masalalarining yoritilishi. Beruniy asarlarida kishilik ehtiyojlarining paydo bo'lishi va uni qondirish asoslari. XIV asr oxiridagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvol. Amir Temurning iqtisodiy siyosati.Temuriylar davridagi iqtisodiy siyosat va uning hozirgi davr uchun ahamiyati.

**3-mavzu. Merkantilizm iqtisodiy ta'limoti. Angliya va Fransiyada klassik iqtisodiy maktabning vujudga kelishi.**

Merkantilizm tushunchasi, uning mazmuni Merkantilizm g'oyasi vujudga kelishining iqtisodiy va ijtimoiy shart-sharoitlari. Boylikning asosi - muomala sohasi. Ilk merkantilizm monetar tizimi. Angliya-proteksionizmi. Fransiya-kolbertizmi. Merkantilizmning tarixiy taqdiri.

Klassik (mumtoz) iqtisodiy maktab vujudga kelishining tarixiy shart-sharoitlari va umumiy xarakteristikasi. Anglivadagi sharl-sharoit. Boylikning asosi - ishlab chiqarish sohasi, mehnat va yer, tabiat. Vilyam Petti asarlari, uning merkantilizmga munosabati.

**4-mavzu. Klassik iqtisodiy maktabning to'la shakllanishi, A.Smit va D. Rikardolarning iqtisodiy ta'limotlari.**

A.Smit asarlarida klassik maktab g'oyalarining yanada rivojlantirilishi. A.Smit manufaktura davrining iqtisodchisi sifatida. A.Smit «Xalqlar boyligining tabiati va sabablari tog'risidagi tadqiqot» nomli asari, feodalizmga munosabat. D.Rikardo sanoatning fabrika davri mafkurachisi. Uning «Siyosiy iqtisod va soliq solishning boshlanishi» asaridagi asosiy iqtisodiy g'oyalar. Rikardoning Smit g'oyalariga mutanosibligi va farqlari.

**5-mavzu. Klassik iqtisodiy maktabda muxolif g'oyalarning vujudga kelishi va ularning mohiyati.**

Muqobil iqtisodiy g'oyalar paydo bo'lishining tarixiy shart-sharoitlari va xarakteristkasi. Maltus va uning «Nufus nazariyasi», qiymat nazariyasi va foyda masalalarining klassik maktabga xos ziddiyatlaridan foydalanish. J.B.Sev uning metodologiyasi, qiymatning tahlili, ishlab chiqarishning uch omili (kapital, yer mehnat) va kapitalning qiymati unumdorligi haqidagi o'ylar. «Sey qonuni».

**6-mavzu. Bozor iqtisodiyotida muxolif g'oyalarining vujudga kelishi, mohiyati va tarixiy taqdiri.**

XIX asrning birinchi yarmidagi xayoliy sotsializmning o'ziga xos xususiyatlari. A.Sen-Simon, Sh. Fure va R.Ouvenlarning iqtisodiy qarashlari. Sosialist-rikardochilarning (T.Godskin, J.Grey, J.Brey) iqtisodiy qarashlari. Marksizm vujudga kelishining tarixiy shart-sharoitlari, K.Marksning iqtisodiy ta'limoti va Markscha iqtisodiy ta'limotning tarixiy taqdiri.

**7-mavzu. Germaniyadagi tarixiy maktab iqtisodiy g'oyalarining mohiyati va o'ziga xos xusuiyati.**

Klassik maktabga tanqid. "Siyosiy iqtisod" o'rniga "iqtisodiy tarix" konsepsiyasi. F.Listning "Siyosiy iqtisodning milliy tizimi" asaridagi g'oyalar.Ijtimoiy (davlat, din, ahloq, ma'naviyat) omillarga e'tibor. Iqtisodiy rivojlanish bosqichlari.Robert Knis, Gildebrand g'oyalari.J.B.Klarkning iqtisodiy ta'limoti.

**8-mavzu. Marjinalizm ta'limoti va neoklassik iqtisodiy maktablar.**

Marjinalizm iqtisodiy ta'limotining shakllanishi, umumiy ta'rifi. Avstriya maktabi va uning xususiyatlari. Kembridj maktabi va uning xususiyatlari.A.Marshall ta'limoti. Lozanna maktabining xususiyatlari. Marjinalistik ta'limotning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati.

**9-mavzu. Institusionalizm iqtisodiy ta'limotining mohiyati va ahmiyati.**

Institusionalizm iqtisodiy ta'limoti. Institusionalizm iqtisodiy ta'limotining asosiy xususiyatlari. T.Veblen qarashlari. Jon R.Kommons qarashlari. Ijtimoiy-institutsional yo'nalish evolyutsiyasi. U.Mitchell, J.Gobson va U.Gamiltonlarning iqtisodiy qarashlari. J.M.Klarkning «Iqtisodiy institutlar va insonlar farovonligi»,
A.Berlining «Mulksiz hokimiyat» va «XX asr kapitalistik inqilobi» asarlari.

**10-mavzu. Djon Meynard Keyns ta'limoti va yangi Keynschilik.**

Xalqaro iqtisodiy integratsiyaga oid nazariyalar: Yevropa Ittifoqi. OPEK, Xalqaro valyuta fondi. Jahon banki. Xalqaro kapital harakati va investisiyalarga oid nazariyalar. Xalqaro valyuta munosabatlari. Jahonshumul iqtisodiy muammolar. Neoklassik yo'nalish vakillari: B.Olin, K.Iverson, R.Nurkselarning nazariyalari.

**11-mavzu. Mukammal bo'lmagan raqobat bozori ta'limotlar.**

Nomukammal bozorning xususiyatlari E.Chemberlinning monopolistik raqobat nazariyasi. Edvard Xeyting Chemberlin asarlari. Monopoliyaning mohiyati, monopol baho va monopol foydaning yuzaga kelishi. Monopoliyaning mohiyati - bu taklif ustidan nazorat, bunda baho ustidan ham nazorat bo'ladi. J. Robinson baholar belgilanishining mexanizmini aniqlash. Bahoning miqdori, sotuvchi o'rnatgan shu bahoda xaridorning mahsulotni sotib olish va monopol foyda tabiati o'rnatiladi.

**12-mavzu. Neoliberalizm iqtisodiy g'oyalarining mohiyati va ahamiyati.**

Neoliberalizmning umumiy xususiyatlari. Ijtimoiy bozor xo'jaligi konsepsiyasi. Chikago monetarizm maktabi. Neoliberalizmning boshqa oqimlari. A.Uolter Lippmanning «Erkin shahar» asari.Yetakchi namoyandalari: V.Oyken, V.Ryobke, A.Ryustov, L.Erxard. Frayburg maktabi.London maktabi.Chikago maktabi.

**13-mavzu. Hozirgi zamon iqtisodiy ta'limotlarning asosiy yo'nalishlari.**

Hozirgi davr iqtisodiy ta'limotlarining asosiy xususiyatlari. Ijtimoiy-iqtisodiy yo'nalishining shakllanishi va rivojlanishi. Keynsning iqtisodiy qarashlari,keynschilik,yangi keynschilik. Yangi klassik(neoklassik)yo'nalish.

**14-mavzu. Jahon xo'jaligi to'g'risidagi iqtisodiy ta'limotlar.**

Turkistonning mustamlaka davridagi iqtisodiy ahvoli.«Harbiy kommunizm» siyosatining mohiyati. Yangi iqtisodiy siyosat, uning mazmuni

va ahamiyati.
Nokapitalistik (kapitalizmni chetlab o'tib) sosialistik jamiyat qurish «nazariya»si va uning tarixiy taqdiri. Iqtisodiyotda ma'muriy buyruqbozlik tizimining g'alabasi (rejali iqtisodiyot). Bozor iqtisodiyotida muqobil tizim va uning inqirozi.
O'zbekistonning mustaqil rivojlanish yo'liga o'tishi. Bozor munosabatlariga o'tish davrining tarixiy zaruriyati.Boshqariladigan ijtimoiy bozor iqtisodiyoti yo'lini tanlab olinishi va uning xususiyatlari.

**15-mavzu. O'zbekistonda milliy bozorli iqtisodiyotning shakllanishi va rivojlanishi to'g'risidagi g'oyalar.Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyalari: "Xarakatlar strategiyasi" va "Taraqqiyot strategiyasi".**

Ma'muriy - buyruqbozlik iqtisodiyoti oqibatlari va tub islohotlar zaruriyati. O'tish davri tavsifi va uning milliy xususiyatlari iqtisodiy islohotlarning milliy modeli va yangi asr strategiyasi. Bozor munosabatlariga o'tish bosqichlariga oid qarashlar tahlili. Ma'muriy - buyruqbozlik iqtisodiyoti oqibatlari va tub islohotlar.

"2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi". "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risida.

## III. Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. "Iqtisodiy ta'limotlar tarixi" faniga kirish. Fanning predmeti va o'rganish usullari.
2. Qadimgi dunyo va antik davr iqtisodiy g'oyalari.
3. O'rta osiyadagi temuriylar davrigacha bo'lgan iqtisodiy g'oyalar.
4. Amir Temur va Temuriylar davridagi iqtisodiy g'oyalar.
5. Merkantilizm iqtisodiy ta'limoti.
6. Angliya va Fransiyada klassik iqtisodiy maktabning vujudga kelishi.
7. Klassik iqtisodiy maktabning to'la shakllanishi.
8. A.Smit va D.Rikardolarning iqtisodiy ta'limotlari.
9. Klassik iqtisodiy maktabda muxolif g'oyalarning vujudga kelishi va ularning mohiyati
10. Klassik iqtisodiy maktabda muxolif g'oyalarning vujudga kelishi va ularning mohiyati
11. Bozor iqtisodiyotida muxolif g'oyalarining vujudga kelishi, mohiyati va tarixiy taqdiri
12. Bozor iqtisodiyotida muxolif g'oyalarining vujudga kelishi, mohiyati va tarixiy taqdiri
13. Germaniyadagi tarixiy maktab iqtisodiy g'oyalarining mohiyati va o'ziga xos xusuiyati.
14. Germaniyadagi tarixiy maktab iqtisodiy g'oyalarining mohiyati va o'ziga xos xusuiyati.

15.Marjinalizm ta'limoti va neoklassik iqtisodiy maktablar.
16.Marjinalizm ta'limoti va neoklassik iqtisodiy maktablar
17.Institusionalizm iqtisodiy ta'limotining mohiyati va ahmiyati
18.Institusionalizm iqtisodiy ta'limotining mohiyati va ahmiyati
19.Djon Meynard Keyns ta'limoti va yangi Keynschilik
20.Djon Meynard Keyns ta'limoti va yangi Keynschilik
21.Mukammal bo'lmagan raqobat bozori ta'limotlar
22.Mukammal bo'lmagan raqobat bozori ta'limotlar
23.Neoliberalizm iqtisodiy g'oyalarining mohiyati va ahamiyati
24.Neoliberalizm iqtisodiy g'oyalarining mohiyati va ahamiyati
25.Hozirgi zamon iqtisodiy ta'limotlarning asosiy yo'nalishlari
26.Hozirgi zamon iqtisodiy ta'limotlarning asosiy yo'nalishlari
27.Jahon xo'jaligi to'g'risidagi iqtisodiy ta'limotlar
28.Jahon xo'jaligi to'g'risidagi iqtisodiy ta'limotlar
29.O'zbekistonda milliy bozorli iqtisodiyotning shakllanishi va rivojlanishi to'g'risidagi g'oyalar.
30.Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyalari: "Xarakatlar strategiyasi" va "Taraqqiyot strategiyasi" to'g'risida.

**Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'limni baholash – bu talabalarning jamoaviy tartibda va yakka tartibda berilgan amaliy loyihalarni bajarishlari orqali amalga oshiriladi. Bunda har bir talabaga bitta jamoaviy loyiha va ikkita yakka tartibda bajariladigan loyiha beriladi. Talaba berilgan loyihaning maqsad va vazifalarini, mohiyatini tushungan holda qo'yilgan masalani o'rganib, izlanishlar olib boradi. Olingan natijalarni tahlil qilib, hulosalari bilan taqdimotlar tayyorlab himoya qiladi. Ishchi fan dasturida loyihalarning soni, mavzusi, mazmuni bajarish usullari va topshirish muddatlari to'liq ochib beriladi.

**Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

1."Iqtisodiy ta'limotlar tarixi" fanining predmeti.
2. Qadimgi Sharqdagi iqtisodiy g'oyalar.
3. Antik dunyo iqtisodiy qarashlari.
4. IX-XV asrlarda O'rta Osiyodagi iqtisodiy fikrlar.
5. Merkantilizm iqtisodiy ta'limotining mohiyati.
6. A.Smit manufaktura davrining iqtisodchi nazariyotchisi
7. D.Rikardo ta'limotining ahamiyati
8. XIX asrning II-III choragidagi ijtimoiy iqtisodiy vaziyat
9. Bozor iqtisodiyotiga muxolif g'oyalar.
10. Marjinalizm iqtisodiy ta'limotining shakllanishi, umumiy ta'rifi
11. Avstriya maktabi va uning xususiyatlari
12. Kembridj maktabi A.Marshall ta'limoti
13. Marjinalizmning Amerika maktabidagi xususiyatlari
14. Institusionalizm yo'nalishi

| | |
|---|---|
| | 15. Nomukammal bozor ta'limotlari<br>16. Monetarizm va neoliberalizm evolyusiyasi<br>17. Keyns iqtisodiy ta'limotining xususiyatlari<br>18. Keynschilik va neokeynschilik<br>19. Xalqaro kapital harakati va investisiyalarga oid nazariyalar<br>20. O'tish davri tavsifi va uning milliy xususiyati(I.Karimov asari asosida).<br>21. Ijtimoiy institusional ta'limotlar (Gelbreyt, Toffler) evolyusiyasi<br>22. Neoliberalizm va monetarizm (Fridman, F. Xayek, Mizes, Rebke) evolyusiyasi.<br>23. Amerika maktabi. Klarkning iqtisodiy g'oyalari.<br>24. Germaniyadagi yangi va eng yangi tarixiy maktab. Ularning iqtisodiy mazmuni.<br>25. Iqtisodiy tadqiqotlarda sosialistik yo'nalish (A.S.Simon, Sh.Furye, R.Ouen, K.Marks, V.I.Ulyanov (Lenin)<br>26. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" to'g'risida.<br>27. "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risida.<br>28.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishga doir farmon va qarorlari.<br>29. "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" to'g'risida.<br>30." O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" to'g'risida. |
| 3. | **VII. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**<br>**Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:**<br>– iqtisodiy ta'limotlar tarixining mohiyati, talabalarning erkin fikrlashini, iqtisodiy g'oya, iqtisodiy kategoriyalar to'g'risida ***tasavvurga ega bo'lishi;***<br>– turli davrlar va jamiyatlarda paydo bo'lgan iqtisodiy fikrlar va ta'limotlarning mamlakat rivojiga ta'siri to'g'risida ***bilishi va ulardan foydalana olishi;***<br>– iqtisodiy taraqqiyotga olib kelgan g'oyalar va iqtisodiy siyosatning mazmuni, iqtisodiy rivojlanishning yuksalish va sustlashuv sabablarini, ijobiy g'oyalarning iqtisodiy ta'limot yoki nazariyalar darajasuga erishilganini, iqtisodiy g'oyalari rivojidagi cheklanganlikni batafsil taxlil etish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.*** |
| 4. | **VIII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• ma'ruzalar;<br>• interfaol keys-stadilar; |

| | |
|---|---|
| | • seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);<br>• guruhlarda ishlash;<br>• taqdimotlarni qilish;<br>• individual loyihalar;<br>• jamoa bo'lib ishlash va hioya qilish uchun loyihalar |
| 5. | **IX. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar va tushunchalar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha variantlar asosida yozma topshiriqlarni bajarishi zarur. |
| 6. | **X. Asosiy adabiyotlar:**<br>1.M.Armstrong, J.Taylor. Regional economics and policy. 3- edition. Willey Blackwell publisher, 2010- 448 p<br>2.Razzoqov A., Toshmatov Sh., O'rmonov N. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. Darslik.-Toshkent.: «Iqtisod - moliya» - 2007 y.<br>3. Razzoqov A., Toshmatov Sh., O'rmonov N. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. Ma'ruzalar matni.-Toshkent.: «Iqtisod - moliya» - 2007 y<br>4. Razzoqov A . O'rta Osiyo mutafakkirlarining iqtisodiy g'oyalari. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2009. - 270 b.<br>5. Shodmonov Sh.Sh., G'ofurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik.- T. "Iqtisod-moliya", 2010.<br>**XI. Qo'shimcha adabiyotlar**<br>1.Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017 yil 14 yanvar / Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 104 b.<br>2.Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2016 yil 7 dekabr /SH.M.Mirziyoyev. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017. – 48 b.<br>3.Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Mazkur kitobdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016 yil 1 noyabrdan 24 noyabrga qadar Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilari vakillari bilan o'tkazilgan saylovoldi uchrashuvlarida so'zlagan nutqlari o'rin olgan. /SH.M.Mirziyoyev. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017. – 488 b.<br>4.Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Yangi O'zbekiston strategiyasi.-Toshkent, 2021. -458 b. |

| | |
|---|---|
| | **Axborot manbalari**<br>http://www.edu.uz–O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi sayti.<br>http://www.gov.uz– O'zbekiston Respublikasi xukumati portali.<br>www.pedagog.uz<br>www.cspu.uz<br>www.pedagog.uz<br>www.natlib.uz (A.Navoiy nomidagi O'z.MK)<br>www.ziyonet.uz - Ziyonet axborot-ta'lim resurslari portal<br>www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.<br>www.economist.com<br>www.worldeconomics.com<br>www.tradingeconomics.com<br>http://grad-schools.usnews.rankingsandreviews.com / best-graduateschools / top-humanities-schools/economics-rankings<br>www.ereport.ru - Обзорная информатсия по мировой экономике<br>www.stplan.ru - экономика и управление<br>www.catback.ru - научные стати и учебные материалы по экономике |
| 7. | **Chirchiq davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2023 yil "29" 08 dagi qarori bilan tasdiqlangan** |
| 8. | **Fan/modul uchun ma'sul:**<br>A.M.Suyarov - CHDPU, "Maktab menejmenti" kafedrasi o'qituvchisi. |
| 9. | **Taqrizchilar:**<br>O.A.Ortiqov - CHDPU, "Maktab menejmenti" kafedrasi dotsenti, i.f.n.<br>B.Sh. Shodmonov – TMI "Iqtisodiy xavfsizlik" kafedrasi v.b, dotsenti, i.f.n. |